

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**MINISTRY OF DIGITAL TECHNOLOGIES
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTANМИНИСТЕРСТВО ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ibrohim Mo'minov ko'chasi, 4-uy Tel: (+998) 71-238-41-07, 71-238-43-63, Fax: (+998) 71-238-41-74 info@digital.uz, www.digital.uz, digital@exat.uz

2025-y. « 15 » iyul

34-8/4963

« » 2025 г.

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmonida 2030-yilgacha IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksportini **hajmini 5 mlrd. dollarga** yetkazish hamda IT sohasida 300 ming nafar malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifalari belgilangan.

Ushbu topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, “Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi” DM hamda hamkor tashkilotlar tomonidan Shveysariya Taraqqiyot va Hamkorlik Agentligi (SDC) bilan hamkorlikda **“O‘zbekistonda IT va raqamli ta’lim landshaftini yaxshilash: Tadqiqot bosqichi”** loyihasi amalga oshirilgan bo‘lib, loyihaning asosiy maqsadi etib, O‘zbekistonda IT va raqamli savodxonlik darajasini aholining turli qatlamlari orasida, jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar, yoshlar, qishloq aholisi, ayollar, nogironlar orasida aniqlash belgilangan.

Joriy yilning 21-iyul sanasida O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi binosida, “Kongress Hall” zalida loyiha yakuniga bag‘ishlangan forumni o‘tkazish rejalashtirilgan (forum dasturi ilova qilinadi).

Shuningdek, ushbu forumda “Inklyuziv va teng huquqli jamiyat barpo etishda raqamli texnologiyalarning roli”, “Kelajak kasblar atlasi”, “[digisurvey.uz](https://qr.me-qr.com/gJqEjsT2) veb-sayti taqdimoti”, “Iqtidorli yoshlar uchun startaplar”, “Raqamli ta’limdagi imkoniyatlar” mavzularida spikerlar chiqishi hamda “IT kasblar – talab va taklif” mavzusida panel muhokamasi bo‘lib o‘tadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Toshkent shahridagi oliy ta’lim muassasalarining mazkur forumda qatnashish istagida bo‘lgan talabalarni ushbu forumda ishtirok etishini ta’minlashda amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

Forumga ro‘yxatdan o‘tish uchun havola: <https://qr.me-qr.com/gJqEjsT2>.

Bog‘lanish uchun: “Raqamli ta’limni rivojlantirish markazi” DM bosh mutaxassisi - M.Muxtorova (Tel: 71 203-03-43(104)).

Vazir o‘rinbosari**R. Karimjonov**